

**Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi va zoogigiyena kafedrasining assistenti O.B.To‘xtayevning “Ishchi otlar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish” mavzusidagi ochiq amaliy mashg‘ulotning ishlanmasiga**

## **TAQRIZ**

Amaliy mashg‘ulot mavzusi fan dasturi va fanning ishchi rejasiga mos keladi, amaliy mashg‘ulot matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, amaliy mashg‘ulotning o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan.

Amaliy mashg‘ulot ishlanmasida “Ishchi otlar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish” mavzusida otlarni oziqlantirishda ratsion tarkibi makkajo‘xori va arpa qo‘shib berish ratsion to‘yimliligini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Otlarning to‘yimli moddalarga bo‘lgan talabi, ishlatilishiga qarab bo‘linishi, otlardan qishloq xo‘jaligida, sportda, milliy o‘yinlarda, chegara qo‘sishinlarida foydalanish haqida batafsil ma’lumot berib o‘tilgan. Ayniqsa otlarning ovqat hazm qilish organlarining anatomik tuzulishi va oziqlantirishda shu xususiyatini inobatga olish muhumligi takidlab o‘tilgan, dag‘al oziqalarni ishlov berishda va yedirishga tayyorlab oziqlantirish to‘g‘risida yetarli darajada ma’lumotlar keltirilgan. Mavzuga mos keladigan test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy xujum savollari, adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

O.B.To‘xtayevning “Ishchi otlar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotning taqdimoti hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**“Yaylov chorvachiligi, qorako‘lchilik,  
asalarichilik va ipakchilik”**

**kafedrasi mudiri, q.x.f.n**

**R.R.Ro‘zimurodov**

**Hayvonlarni oziqlantirish texnologiyasi va zoogigiyena kafedrasining assistenti O.B.To‘xtayevning “Ishchi otlar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish” mavzusidagi ochiq amaliy mashg‘ulotning ishlanmasiga**

## **TAQRIZ**

Amaliy mashg‘ulot mavzusi fan dasturi va fanning ishchi rejasiga mos keladi, amaliy mashg‘ulot matni yangi pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda uslubiy tomondan to‘g‘ri taqdimot qilingan. Dastlab mashg‘ulotning maqsadi va vazifalari, amaliy mashg‘ulotning o‘qitish pedagogik texnologiyasi berilgan va o‘quv faoliyat natijalari ko‘rsatilgan.

Amaliy mashg‘ulot ishlanmasida “Ishchi otlar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish” mavzusida ishchi otlarni oziqlantirishda ularning biologik xususiyati, ularning kasalliklarga chidamliyligi oziqlantirish sharoitiga bog‘liqligi, otlardan samarali foydalanish saqlash va oziqlantirishning muhumligi yoritib berilgan. Ratsion va tahlili 100 kg tirik vaznga to‘g‘ri keladiga ozuqalar, bir ozuqa birligiga to‘g‘ri keladigan qurug modda, otlar bajargan ishiga qarab me’yor belgilash va ishlashining uzviyligi necha soat davom etishi ishlanmada keltirilgan. Ratsion tarkibidagi mineral va vitaminlar otlarni sog‘lig‘iga ijobiy ta’sir qilib ish qobiliyatini yanada oshiradi. Mavzuga mos keladigan test savollari, nazorat savollari, vazifa va aqliy xujum savollari, adabiyotlar ro‘yxati berilgan.

O.B.To‘xtayevning “Ishchi otlar uchun oziqlantirish ratsionini tuzish” mavzusidagi amaliy mashg‘ulotning taqdimoti hozirgi zamon ta’lim texnologiyalari talablariga javob beradi deb hisoblayman va uni o‘quv mashg‘ulotiga foydalanish uchun tavsiya qilaman.

**Qorako‘chilik va cho‘l ekologiyasi ilmiy  
tadqiqot instituti, ilmiy ishlar bo‘yicha  
direktor o‘rinbosari. q.x.f.f.d. (PhD)**

**A. Xatamov**